

Bismillohir-Rahmonir-Rahim

Zihi isming azim, rahmonlig'u rahimlig'ing - vojibut-taKjzim. Ism - sening isming va rahmonliq va rahimliq - sening qisming, sen - ganj va ofarinish b'T"tilisming. Isming jamKji sifoti - asmoi husno, rahmonlig' va rahimligingg'a yuz ming hamdu sano. Rahim ham sen, rahmon ham sen, azim ham sen, subhon ham sen. Subhonolloh, ne kibriyovu azamatdurkim, sendin o'zgaga vujud itloqi bo'hton va tuhmatdur. Zoting - qayyumi barhaq, vujudung boqiyi mutlaq. Sendin o'zga mavjud ko'runganlar namudi benamud, balki nobudu nomavjud, vujud va mavjuddin sen maqsud. Taolo shaKjnuva va amma ehsonuka va lo iloha g'ayruka. Yo vadud va MaKjbudi vojib ul-vujud.

HAMD. Ilohi, azamat va jabarut sening shaKjningdadur va mulku malakut - sening hukmu farmoningda, azaliyattingg'a bidoyat yo'q va abadiyattingg'a haddu nihoyat yo'q. Dahr gulshanida har giyohu yafrog' - sening hamdingg'a zokir va sipehr anjumanida har harfu avroq - sening neKjmatingg'a shokir. Jamoliyatting bo'stonida sekiz uchmoqb'B"bir rayhoni dilnavoz va jaloliyatting zindonida etti tamug' - bir samumi jongudoz. Hashamating borgohida bir shamma - mehri munir va sanKjating korgohida bir lavha - sipehri asir. Yuz bu olamcha mavjud etay desang, "kun fayakun" iborati anga kofiy va ming onchanli maKjdum etay desang, "haboan mansuro" ishorati anga vofiy. Vahdoniyat sifatida shariku vazirdin mubarro va fardoniyat siyratida validu valaddin muarro. Ilming daryosidin har gavhar nujum durardin pokroq, mulkung sahrosidin har lola quyosh mashKjalidin otashnokroq. Bemonandlig'ingg'a "laysaka mislihi shayKjun" guvohi sodiq, bepayvandlig'ingg'a "lam yalid va lam yulad" dalili muvofig. Har negakim tashbih qilinsa o'xshamassen, yaxshi boqilsa ul sandin durur va sen ul emassen. Hamdingda takallum ahli tili kosir, siposingda mutakallimlar ajzdin mutahayyir. Bu bobda "lonuhsi sanoan alayka" mazkur bo'lur, har necha balog'at lofin urgan dam urmasa, maKjzur bo'lur.

NAKJT. Ulki, "kuntu nabiiyan va Odamu baynal-moi vattin" mazmuni anbiyoga muqaddamdu, "rahmatan lil-olamin va xotamun nabiinin" mantuqi bila alarga muaxxar va xotamdu, habibi Hazrati Iloh Muhammad rasululloh sallallohi alayhi vasallamdu. Yuz yigirma to'rt ming anbiyoyi mursal xilqatidin murod ul va barcha anga xayl va o'n sekiz ming olam ixtiroKjidin maqsud - ul va ofarinish anga tufayl. Nubuvvat taxtida humoyui farqi uzra toj, anbiyovu rasul xaylida sohibmeKjroj, avvalinu oxirin xalqi aning shafoatiga muhtoj. Buroqi inoyat aning markabi ulvi xiromi va Jibrili hidoyat aning payki barqgomni, laylat ul-meKjroj aning shabistonni va "li maKjollohi vaqtun" aning maqomi. "Salavotullohu alayhi va alo olihit-tayyibin va ashobihit-tohirin".

MUNOJOT.

Ilohi, akram ul-akramin - sen va men - gunohkor.

Ilohi, arham ar-rohimin - sen va men tiyra-ro'zgor.

Ilohi, agarchi jurmu isyondin o'zga ishim yo'q, ammo sendin o'zga ham kishim yo'q.

Ilohi, yo'q erdim bor etting, tifl erdim, ulug'lar jarg'asig'a qotting, ammo nafsu havo elidin zuhlum niholin ushotting va ofiyatim xaylin yozuq sipohi turktozidin tarqatting.

Ilohi, yomon afKjolimdin parishonlig'nm cho'qtur va shum nafsimda pushaymonliq yo'qtur, mundoq balodin qutulurg'a ummidim sendin-o'qtur.

Ilohi, o'zluk yomonligidin o'zlugum bila o'ta olmaydurmen va yaxshilarning etagin yomonlig'im uyotidin tuta olmaydurmen.

Ilohi, yillar ibodat qilg'onni rad qilsang, hech kim daxl qila olmas va qarnlar isyon qilg'anni qabul qilsang, hikmatin hech kishi bila olmas.

Ilohi, Odam xilofot taxtining mustavjibi o'zimu bo'ldi, sening taqdiring bo'lmay shayton muxolifatining so'zimu bo'ldi?..

Ilohi, berguchisen ham fisqu fujurni, ham zuhd, ham varaKjni, alarning tuhmatin bir necha ojizg'a bog'lamoq ne yaKjni?

Ilohi, inoyatingg'a ummidvormenkim, gunohim behaddur va rahmatingg'a sazovormenkim, xatovu sahvum beadaddur.

Ilohi, dardi holimni har kimga aytsam, rad qilsa, sanga tavajjuh etkaymen va agar sen rad qilsang, netkaymen va kimga ketkaymen?

Ilohi, sening yo'lungda tufrog' etsa, to'tiyodur va kesak yo'luqsa, kimyodur, g'ayringdin qizil oltun qora tufrog'dek beqadru kambahodur.

Ilohi, yomonlig'imdin agarchi ko'n alamim bor, g'am-xorim sen bo'lsang, ne g'amim bor.

Ilohi, dunyo mayli rishtasin ko'nglumdin uz va nafsoniyat tiyraligida hidoyat shamKji bila o'zung sori yo'l ko'rrez.

Ilohi, ul uzun yo'l va qatig' vodiyya inoyating bila yo'lida va aning qatKjida ayog'im toyilsa, dastgirliging bila qo'lida.

Ilohi, bu yo'l sayrida shaytonni telegramga yovutma, agar ul aduv yo'l ursa zuhdumdin ne kelgay, inoyatingni o'ksutma.

Ilohi, taqvie berki, nafsi g'addor anga zabun bo'lsun, varaKje nasib qilki, shaytoni nobakor boshi aning ayog'ida nighun bo'lsun.

Ilohi, g'aflat uyqusidamen, bedor qil va jaholat mastligidamen, hushyor qil.

Ilohi, ul bedorlig'ni ogohlilikka etkur va bu xushyorlig'ni beihtibohlikka ulandur.

Ilohi, dushmandur shaytoni xiylanamoy manga va nafsi xudroydur korfarmoy manga, bu vartalarda dastgir bo'lmasang, voy manga.

Ilohi, agar xislatim egridur, niyatim tuzdur, bu jihatdin agar qo'rquunchum bordur, ammo ummedim birga yuzdur.

Ilohi agar afKjolimga boqsam, uyot o'lthur va sening karamingni sog'insam, ummid tanimg'a jon kelturur.

Ilohi, sendin yomonlig' kelmas va mendin yaxshilig', sen yaxshisen va men yomon. Har kimga o'ziga munosibdur qilg'. Tikan ishi sanchilmoq uchun, ani kuydurmak munosibdur, bahor fayzi om uchun, anga gul musohibdur.

Ilohi, tufrog'din el ko'ziga tiyralik etar va quyosh ashiKja bila olam ahli ko'zin ravshan etar.

Ilohi, chun har ne qililur sanga taqdirdur, qilg'uchig'a qilmoqta ne tadbirdur.

Ilohi, taqdir qilg'aningni qilurg'a ne ixtiyor, qilmasmen demakka kimning haddi bor.

Ilohi, agarchi zalolatqa tushubmen, ammo hidoyatingga talabgermen va agarchi tamug' o'tig'a tushkali yovushubmen, ammo rahmatingdin umidvormen.

Ilohi, umidimni karamingdin maKjdum qilma va rahmatingni xaloyiqqa om qilg'onda meni ham mahrum qilma.

Ilohi, agar dastgir sen bo'lmasang, aso hamonu it g'unjisi hamon va agar pardapo'sh sen bo'lmasang, rido hamonu eshak arg'amchisi hamon.

Ilohi, toatingg'a havasim bor, ammo nafsha zabunmen, ibodatingg'a multamasim bor, ammo giriftori ishqu jununmen.

Ilohi, lahv uovo mayidin mastmen, ujbu riyo jomidin mayparastmen, bu dastovizlar bila shaytong'a hamdastmen.

Ilohi, pariuzorlarga meni devona qilding va shamKji ruxsorlarg'a ko'nglumni parvona qilding, bu sabablardin rasvolig' bila olamg'a afsona qilding.

Ilohi, necha musalsal zulf savdosidin bo'ynumda zanjir bo'lg'ay va muanbar xol xayolidin ko'nglum asir, sanga taqdir bu navKj

ersa, manga ne tadbir?

Ilohi, ko'nglum kishvari qaro kirpiklar yasoli yag'mosidin buzuqtur va sabrim uyi gulrang uzorlar xo'y'i selidin yiquqtur.

Ilohi, har otashin laKjl mening o't tushkan joni mdin namudor va har serob g'unchada mening ko'p paykon ko'nglum shakli padidor. Bu ofatlarning iloji senga osondur, menga dushvor.

Ilohi, sho'xi chobuklarga chevilanda har yon shitob solursen va alarning har yon shitobidin mening oshufta ko'nglumga har dam iztirob solursen.

Ilohi, alarg'a ul shitobdin qaror yo'q va menga bu iztirobdin ixtiyor yo'q. Alarning dilrabolig'i ham - sendin va oshufta ko'nglumning mubtalolig'i ham - sendin.

Ilohi, birav husniga malohat berursesn va aning tuzin mening ko'nglum jarohatig'a sepursesn.

Ilohi, birav mijasi nishin zahrolud etarsen va uning no'gin mening yaralig' bag'rimg'a sancharsen.

Ilohi, shamKj husni bezanmagi ham sendin va parvona joni o'rtanmagi ham sendin.

Ilohi, gul uzorig'a dilafro'zluk ham sen berding va bulbul fig'onu zorig'a jigarsos'zluq ham sen berding. Agar qaysi shamKji gulrux ishq o'tinkim ko'nglumg'a solding, parvona va bulbuldek sabru qarorimni olding.

Ilohi, agar ishq suubatidin bazm tuzdum va may seli ofatidin taqvo va zuhdum uyin buzdum. Ul ne may ichmak va ayog' tutmak erdikim, ayog'-ayog' qon yutmoq erdi.

Ilohi, agar hajr shiddatidin tunganlar o'rtadim, dinu islom mazraKjida xirmanlar o'rtadim.

Ilohi, har tungan savolidin ofiyatim ruxsorin qaro qildim va aning dudidin imonim ro'zgorin qaro qildim.

Ilohi, agar havasdin bosh-ayog' yalang har yon yugurdum, boshdin-ayog'im yomon erkanin xaloyiqqa bildurdum.

Ilohi, agar shavq jununidin ko'ksumga tosh urдум, ul tosh bila nangu nomusum shishasin sindurdum.

Ilohi, gohi bu junundin atfol toshin boshimg'a yog'durdum, gohi ahhob malomati nishin ko'nglumga etkurdum.

Ilohi, qaysi isyon tiyralig'i bilakim, ofiyatim yuzi harormadi, qaysi bedod suubatikim, men qaro yuzlukka bormadi.

Ilohi, yigitlig'im bu navKj ham qatig' o'tti, ham achig', qarilig'da yuz qatla o'zumni o'ltsams ne asig'.

Ilohi, emdi hamkim, barchadin kechmak xayolin qilurmen, o'zlugum bila kecha olmon, yaqin bilurmsn.

Ilohi, andoqli, bu balolarg'a solding, qutqor va andoqli, bu ibtilolarg'a kiyurdung, chiqor.

Ilohi, men tavba qildim degandin ne sud, sen tavba bergilki, ham Tavvobsenu ham MaKjbud.

Ilohi, namozeki, el bo'limg'uncha qilmag'aymen, xudnamolig'dur va ul namoz uchun xirqavu rido xudoroylig'dur.

Ilohi, ul namoyishu oroyishdin ko'nglumni mubarro qilg'il va bu navKj shayton libosidin paykarimni muarro etgil.

Ilohi, toatqa tavfiq bersang, riyodin asra va ibodatqa yo'l ko'rguzsang, xatodin asra.

Ilohi, ul toatki, ujb kelturgay, ko'nglumga yovutma va ul maKjsiyatkim uzrga etkurgay, tilimdin yiroq tutma.

Ilohi, beiloj dardga alil qilma va bemuruvvat nomardga zalil qilma.

Ilohi, beasllar mazallatidin asra va bediyonatlar tuhmatidin asra.

Ilohi, johil suhbatig'a poband etma va arozil hashmatig'a hojatmand etma.

Ilohi, nosiposlar malomatidin yiroq tut va haqshunoslar xususiyatidin qiroq tut.

Ilohi, ko'nglumni dardu shavqing muhabbati bila ovut va ko'zumni nadomat ashki selobi bila ravshan tut.

Ilohi, tilimni neKjmati beqiyosingga shokir ayla va ko'nglumni hamdu siposingga zokir ayla.

Ilohi, qalamimg'a hamding raqamig'a mashg'ulluk ber va raqamimg'a xaloyiq ko'ngliga maqbulluq ber.

Ilohi, zamirimg'a xudpisandlig'n yovutma va xotirimni el nafkji ayblo'lug'ig'a tutma.

Ilohi, xayolimi niyozi dard ahlig'a moyil tut va niyozim ko'zin dardmandlar ayog'i tufrog'i bila yorut.

Ilohi podshohi Islomni muslimin boshig'a tutqil bardavom, yaKjni bandalarining ustig'a ko'lankangni qil mustadom, to shohu gadog'a duogo'yliq qilmish bo'lg'aymen, vassalom.

Alisher Navoiyning "Munojot" Asari (Suyima G'anieva)

"Munojot" haqida ilk maKjumot Ogoh Sirri Lavandning "Turkiya kitobliklarindagi Navoiy yozmalari" nomli "Turk tili aralashirmalari yilligi - ByulletenKj" (Anqara. 1958) da bosilgan maqolasida berilgan edi. Unda Istanbul. To'pqop. Ravan kutubxonasi Navoiy kulliyotining nafis nusxasi (kotibi Darvesh Muhammad Taqiy, taKjrixi - 901-902 (1495-96-1496-97) va Fotih nusxa (Sulaymoniya kutubxonasi)larida kulliyot avvalidan o'rinn organ asar sifatida tavsif qilingan edi.

1973 yil "Adabiy meros - 3"da H. Sulaymonning "Alisher Navoiy kulliyoti qo'lyozmalari tadqiqotidan" nomli maqolasi bosildi.

Muallif Navoiyning jahon kutubxonalarida mavjud bo'lgan 8 ta mo'Kjtabar kulliyoti fotonusxalari, ularning ko'chirilish tarixi nuqtai nazaridan xronologik tartibdagi muxtasar tafsifini beradi. Turkiya nusxalari tafsifida esa Ogoh Sirri Lavand maKjumotlariga to'la tayanadi. Lskin undan farqli o'laroq H. Sulaymon Darvesh Muhammad Taqiy ko'chirgan nusxani "shoirning o'zi tuzgan kulliyot nusxasi bo'lib, unda kulliyot uchun Navoiyning o'zi yozgan so'zboshi - Munojot bor", - deb yozadi.

Navoiyning "Munojot" asari Ogoh Sirri Lavandning 1965B'T"68 yillar mobaynida nashr etdirgan "Alisher Navoiy" nomli 4 jiddli kitobining oxirgi jildida eKjlon qilingan edi. So'zboshida noshir yozgan ediki: "Munojot mansur yogarish (duo, o'tinish)larning eng go'zallaridandir. Navoiyning mansur asarlari orasida til va uslub boqimidan eng qusursizi hisoblanadi. Muallif "Munojot" To'pqop va Fotih kitobxonalaridagi Navoiy kulliyoti nusxalarining boshinda er olmoqdadur", - deb taKjigidlaydi.

"Munojot" mundarijasidan maKjum bo'ladi. "Kulliyot" uchun maxsus yozilgan so'zboshi emas, Navoiy "Kulliyot"ini tasnid etar ekan, o'zining butun ijodiyotining gumanistik mohiyati, dunyoviylik pafosi, ijtimoiy, siyosiy va falsafiy xarakteri, maKjum isyonkorlik ruhi, asarlarda o'z aksini topgan shaxsiyati, bir so'z bilan aytanda, ilg'or jihatlar davr mafkurasi nuqtai nazaridan shakkoklik sanalgan muddaolar birlashib shoirda botiniy bir hayajon ruhiy iztiroblar paydo qilgan va u Oolloh nazdida tavbatazarruKj qilish ehtiyojini sezgan, desak xato bo'limgay. Lekin buyuk dahoning Ollohdan iltijolari ham uning dunyo qarashida va shaxsiyatidagi umumbashariy ahamiyatga molik ilg'or nuqtalarni ro'y'i rost ilg'ab olish imkoniyatini beradi.

"Munojot" Muqaddima va 3 qism: "Hamd", "NaKjt" va "Munojot"dan iborat. "Hamd" va "NaKjt"dagf fikrlar Navoiy dostonlari avvalidagi hamd va naKjtlardagi qaydlar bilan mutlaqo hamohang bo'lib, Ollohnning buyukligi, azaliv va abadiyligi, yagonalik sifatlari, Muhammad payg'ambarning taKjrifini beradi. "Munojot" qismi esa bevosita Ollohga murojaat tarzida bitilgan. Muallif undan afv iltijo qilib, o'zini gunohkor, Ollohnning karamli ekanini taKjigidlaydi va panteistik ruhdagi eKjtiroflarga o'tadi.

Modomiki, deydi Navoiy, har qanday mavjudot, uning sifatlari, har bir jonzod, uning feKjl atvori, saKjy-harakatlari Olloh tomonidan qismat etilgan zkan, "taqdir qilganingni qilurg'a ne ixtiyor, qilmasmen demakka kimming haddi bor".

MaKjumki, Navoiy hayotining oxirida birmuncha yillar avval yuragi tubidan o'rinn olgav haj safari ishtiyoqi yana olovlanadi. U

This is not registered version of TotalDocConverter
 905 yil oldin yana davomida o'n necha marta b'vesita va bilvosita - yaqinlari orqali Husayn Boyqarodan haj safariga izn so'radi. Har gal Sultan avvaliga ijozat berar, lekin darhol o'zi shaxsan shoir huzuriga tashrif buyurib, safarni qoldirishga ko'ndirib qaytar yoxud eng nozik do'stlarni oraga qo'yib shoirni ahdidan qaytarishga muvaffaq bo'lar edi. Navoiyning "Vaqqifiya"da yozishchicha, "ikki orzu rishtasidan (biri haj, ikkinchisi - Ijod - S. G') o'zgakim, girihi ko'nglum pardasidin echilmadi va ikki murod g'unchasidin o'zgakim, tuguni jonim gulshanidin ochilmadi...
 Menikim bu savdo nizor ayladi, Havas ilgida beqaror ayladi.

Ne imonki, topqay qaroru sukun,
 Birovkim, bu fikr etgay oni zabun".

Bu orzusi ro'yobga chiqmasligiga ko'zi etgan chog'lardida Navoiy ruhiy azoblar girdobida qolar, har qanday rasmiy, norasmin davlat yumushlariyu madad istab keluvchilardan g'oyat toliqar edi, albatta.

"Munojot"dagi "Ilohi, emdi hamkim, barchadin kechmak xayolin qilurmen, o'zlugum bilan kecha olmon yaqin bilurmen. Ilohi, andoqqi, bu balolarga solding, qutqor va andoqkim, bu ibtilolarga kiyurdung, chiqor", - deya iltijo qilishi shoirning yuqorida yodga olingen tushkun kayfiyatidan darak beradi. Shu bilan birga hammadan voz kechish mumkin va oson, lekin "o'zlugi"dan kechish mutlaqo mumkin emas, bu aniq. Binobarin, "o'zluk"ni muqaddas saqlamoqqa, uni tahlikva loqaydliklardan xalos etmoqqa intilish niyoyatda zarur, degan shoirning yuksak eKtiqodini yuzaga chiqaradi.

Diqqatga sazovori yana shuki, Navoiy iltijolari zimmida uni ijodiyoti bo'ylab bosh xat bo'lib o'tgan davr, muhitga yo'naltirilgan armon va o'kinchli mulohazalarni uqsa bo'ladi. Shoir iltijolarining bir necha o'rnda nafsu havo (dunyo, boylik maKjnosidagi - S. G') mayli, hirsu riyo kabilardan saqlanishda madadkorlik qilishni o'tinishi fikrimiz dalilidir. Shuningdek, taqvo, zuhd, ibodat singari barcha el uchun zarur bo'lgan farzlarini bajarishda tavfiq tilaydi: "Ilohi, toatqa tavfiq bersang riyodan asra va ibodatqa yo'il ko'rguzsang xatodin asra", - deb yozadi u. Bu hol XV asr farzandi, tasavvuf taKjlimotiga daxldor ijodkor uchun tabiyidir, albatta.

Navoiyning qator iltijolari uning didaktik qarashlari bilan bog'liqidir: "Ilohi, ashyolar (nodo'stlar - S. G') mazallatidin asra va bediyonatlar tuhmatidin asra. Ilohi, johil suhabatig'a poband etma va arozil (razillar - S. G') qashmatig'a hojatmand etma". Bu iltijolar "Mahbub ul-qulub"dagi shoirning didaktik o'gitlari, bir qator "tanbeh"laridagi hikmatli pandlari bilan hamohangdir. Navoiy o'zining ijtimoiy qarashlariga oid fikrlarini ana shu "Mahbub ul-qulub"da davom etdirib, ularni chuqurlashtirgan, yangi-yangi tushunchalar bilan boyitgan. Uning zamona teskariligi, davr kajraftorligi haqidagi o'kinchli nolalari, zulmkorlik, behayoliklardan malul bo'lgan dilidan otilib chiqqan alamlar o'z aksini topgan edi: "Davr bevafolari javridin dod va dahr behayolari zulmidin fig'onu faryod. To olam binosidur bu o'tga hech kim mencha o'rtanmaydur, to bevafoliq ibtidosidur bu yolinga hech mendek churkanmaydur. Zamon ahli bevafoligidin ko'ksumga tunganlar va davron xayli behayoligidin bag'rimda tikanlar".

Bular "Munojot"dagi: "...gohi atfol toshin boshimg'a yog'durdum, gohi ahbob malomati nishin ko'nglumg'a etkurdum. Ilohi, qaysi isyon tiyraligi bilakim, ofiyatim yuzi qarormadi, qaysi bedod suubatikim, men qaro yuzlukka bormadi" kabi dardli armonlarda o'z aksini topgandek ko'rindi.

Navoiy "Ilohi, zamirimga xudpisandlig'i yovutma va xotirimni el nafKji aybjo'lig'ig'a tutma", - deya iltijo qilar ekan, u o'z umri oxiriga qadar ilg'or insonparvarlik zaminida g'oyat mustahkam turganligidan dalolat beradi. Xulosa tarzida aytish kerakki, Navoiyning "Munojot" asari shoir kulliyoti uchun yozilgan so'zboshi emas, balki hayoti oxirida eKtiqodlari mustahkam, imoni komil, ijodda g'oyaviy niyatlarini yuksak, hayoti va orzu-umidlari pok va xolisligiga ishonsa-da, yana bir bor Ollohdan notinch ruhiyatiga osudalik tilab, avlodlarini maKjnaviy kamolotga, eKtiqodiy ustuvorlikka, o'zligini qadrlash va uni muhofaza etishga chorlash maqsadida yozilgan, o'tmishga emas, kelajakka qaratnlgai dil so'zlaridir.